

## ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLLARI

**Joniqulova Manzura O'ktamovna**  
*G'allaorol Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi  
Umumkasbiy va kasbiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan bo'lib o'quvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'z ustida ishslashga qaratilgan. Professional ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, talabalarni jalg qilish, zamonaviy usullar, ta'lim, o'qitishning asosiy usullari.*

Mashg'ulotlarni bir xil andoza va qabul qilingan an'ana asosida olib borishdan voz kechib o'quvchi va o'qituvchining erkin va ijodkorona tarzda fikr-mulohaza yuritishi, usul va vositalarni qo'llash imkonlari amalda qo'llanilmoqda.

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

O'qituvchi darsni pedagogik texnologiyalarga asoslanib tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanib dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi hamda o'quvchilarda kreativlikni rivojlantiradi.

Ta'limda interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'naliislarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatları muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining

metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta’lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta’lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv materiali o‘zlashtirishga sharoit yaratadi, mashg‘ulot davomida o‘quvchilarining faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko‘zda tutadi, o‘quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o‘quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalg qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, etarli darajada tushunarli bo‘lmagan yoki aniq natijani ko‘zlanmagan topshiriqlar mashg‘ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Pedagogik usullarda dars o‘tish jarayonini, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab tashkillashtirish ta’lim tizimida yuqori samara beradi.

Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida pedagogik texnologiyalardan qo‘llaniladigan juda ham ko‘p usullar mavjud bo‘lib, ulardan: “Issiq kartoshka”, “Namoyish qilish”, “Bir birimizga o‘rgatamiz, bir bir birimizdan o‘rganamiz”, “Gallereya bo‘ylab sayohat” kabi pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.

O‘quv mashg‘ulotining asosiy qismida o‘quvchilarining tayanch bilimlarini faollashtirish maqsadida “Issiq kartoshka” usuli yaxshi samara beradi. Bu usulda o‘quvchilarda chaqqonlik, zukkolik, bilimdonlik, hushyorlik, tez o‘ylab tez javob berish sifatini oshiradi. O‘quv mashg‘ulotining bayonida o‘qituvchi “Namoyish qilish” usulida kompyuter, proyektor, elektron doskalardan keng foydalaniladi O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Bu usulda o‘quvchilar ham eshitib, ham ko‘z bilan ko‘rish imkonini beradi. Bu pedagogik texnologiyada o‘quvchi kelgusi ish faoliyatida muolajani aniq, to‘g‘ri va xatosiz bajarishiga, kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikga sabab bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotida o‘quvchilarining mustaqil ishini tashkil qilishda “Bir birimizga o‘rgatamiz, bir bir birimizdan o‘rganamiz” pedagogik texnologiyasi o‘quvchilarda bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilishda yaxshi samara beradi.

O‘quv mashg‘ulotini mustahkamlash qismida “Gallereya bo‘ylab sayohat” pedagogik texnologiyasi o‘quv mashg‘ulotida o‘quvchilarining qay darajada bilimga ega bo‘lganliklarini aniqlash mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘rtasida hushyorlik, bilimdonlik, zukkolik, do‘stona raqobat va bir birini nazorat qilish kabi hususiyatlar yuzaga keladi. Bunday hislatlar esa hamshira kasbini tayyorlashda alohida kasb etadi.

E’tiboringizga havola qilinayotgan ushbu maqola ma’lum ma’noda pedagogik texnologiya elementlarini amalda tadbiq qilishga doir bo‘lib, ta’lim-tarbiya tizimini yangi pedagogik texnologiya asosida takomillashtirishda o‘qituvchilarimizga yordam beradi degan umiddamiz. Professional ta’lim tizimi sohasini isloq qilishning asosiy omillaridan biri “shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi”dir.

Xulosa va takliflar:

Yangi pedagogik texnologiyani mazmun-mohiyati, muammo va yechimlarini malaka talablari asosida o‘qitiladigan fanlarni o‘rganish jarayoniga qo‘llashga doir usul va uslublarini ishlab chiqish va joriy etish davr talabi. Zamonaviy pedagogik texnologiya pedagogik loyihasi sifatida fan asoslari bo‘yicha o‘quvchi (talaba) larning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq holda tashkil etish va amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Uning metodikadan farqli jihatlari:

a) Oldindan loyihalanadi.

b) Yakuniy ijobi natija kafolatlanadi.

Bu natijani aniqlash mezoni esa o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi hisoblanib, u har bir mashg‘ulot didaktik masalalarini aniq o‘rnatish va ularni hal etish texnologiyasi asosi didaktik jarayon samarasi bilan ta’minlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T. Iste’dod, 2008.-180 b.
3. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsiontexnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste’dod, 2010.-140 b.
4. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.
5. Ходжамкулов, У. Н. (2020). ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (4).
6. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2024). IJTIMOIY TARMOQLARDAN MAQSADLI FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Научный Фокус, 2(17), 125-130.
7. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA SOHA MUTAXASSISLIK FANI BO ‘YICHA IQTIDORLI O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH. Scientific Impulse, 2(18), 125-131.
8. Makhmudov, K. (2021). LEARNING A FOREIGN LANGUAGE AND THE LANGUAGE TOURISM EXPERIENCE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(7)